

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/10.12.2019.I.16.01 - RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NAZAROV ABDUSALOM ORTIQOVICH**

**CHEGARA BOJXONA POSTLARIDA MOLIYAVIY RISKNI  
MINIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023 yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

<b>Nazarov Abdusalom Ortiqovich</b> Chegara bojxona postlarida moliyaviy riskni minimallashtirish istiqbollari .....	3
<b>Назаров Абдусалом Ортикович</b> Перспективы минимизации финансового риска на приграничных таможенных постах .....	25
<b>Nazarov Abdusalom Ortikovich</b> Prospects for minimization of financial risk at border customs posts .....	49
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/10.12.2019.I.16.01 - RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**NAZAROV ABDUSALOM ORTIQOVICH**

**CHEGARA BOJXONA POSTLARIDA MOLIYAVIY RISKNI  
MINIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

**08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023 yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt1799 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va “Ziyonet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Azizov Sherzod O‘ktamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dosent

**Rasmiy opponenlar:**

**Toshmurodova Buvsara Egamovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Elmirzaev Samariddin Eshkuvatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/10.12.2019.I.16.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@ tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@ tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.P.Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**U.V.Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.d., professor

**S.K.Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi aviaparvozlar hajmida doimiy o'sish tendensiyasi saqlanib qolmoqda va kelajakda ham progressiv o'sish prognoz qilinmoqda. Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi (IATA) tahlillariga ko'ra, "Yo'lovchilar soni 2034 yilga borib 7,3 milliardga yetishi kutilmoqda. Dunyodagi sayyohlarning yarmidan ko'pi o'z manziliga yetib borish uchun davlat chegaralarini havo transporti orqali kesib o'tgan"<sup>1</sup>. Bunday sharoitda hech bir davlatning xalqaro aeroportlarida harakatlanayotgan barcha yo'lovchilarni to'liq (total) bojxona nazoratidan o'tkazish mexanizmini joriy qilishga imkon yo'qligi sabab, aksariyat davlatlarda tanlab nazoratdan o'tkazishga asoslangan riskni minimallashtirish tizimi joriy etilgan. Bojxona huquqbuzarliklarini aniqlash va oldini olishda u eng samarali vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, u yo'lovchilar uchun nazorat vaqtini qisqartirish, samaradorligini oshirish, hamda fuqarolar hayoti va mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon bojxona tashkiloti tavsiyalari va xalqaro Kioto konvensiyasi talablarida unga a'zo bo'lgan barcha davlatlar chegara bojxona postlarida moliyaviy risklarni minimallashtirish choralarini ishlab chiqishi zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, jahondagi xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalarida davlat bojxona organlari tomonidan xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy bojxona amaliyoti asosida chegara bojxona postlarida moliyaviy riskni minimallashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borishga keng e'tibor qaratilmoqda. Amalga oshirilayotgan izlanishlarda chegara bojxona postlari orqali harakatlanayotgan yo'lovchilar, ularning qo'l yuki va bagajlarini tanlab olish tamoyili asosida nazoratdan o'tkazishda moliyaviy riskni eng minimal darajaga tushirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, undirilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini to'g'ri va to'liq undirish tadqiqotning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotning har bir tarmoq va sohasida xalqaro integratsiya jarayonlarining jadallashuvi, biznes uchun jozibador investitsiya muhitini yaratish, tashqi savdo uchun bojxona protseduralarining qisqartirilishi, aviatransport orqali harakatlanayotgan yo'lovchilar hajmining keskin oshganligi, bu borada ular tomonidan sodir etilayotgan bojxona huquq buzilish holatlari sonining ortib borayotganligi, yo'lovchilarni bojxona nazoratidan qisqa fursatlarda o'tkazish zaruratining vujudga kelganligi, shuningdek, bojxona organlari oldiga xalqaro aeroportlardan harakatlanayotgan yo'lovchilarga nisbatan "bojxonachisiz bojxona" tamoyili asosida intellektual axborot tizimlari, dasturlari asosida xalqaro zamonaviy bojxona nazoratini tashkil etish vazifasining qo'yilishi - moliyaviy risklarni minimallashtirib borish orqali ta'sirchan choralarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda O'zbekistondagi xalqaro avia o'tkazish

---

<sup>1</sup>Smart border management for seamless international air travel.  
URL:<https://www.unitingaviation.com/news/security-facilitation/smart-border-management-for-seamless-international-air-travel/>

punktlarida harakatlanayotgan yo'lovchilarga nisbatan bojxona nazorati tartibotlarida risklarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi mavjud emasligi, bojxona organlari faoliyatida rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda uning zamonaviy tizimiga ega bo'lgan bojxona xizmatini shakllantirish hamda uni doimiy ravishda takomillashtirib borishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022 yil 27 apreldagi PF-122-son "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018 yil 12 apreldagi PF-5414-son "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 24 noyabrdagi PF-5582-son "Bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 12 apreldagi PQ-3665-son "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bojxona organlarida risk, uning vujudga kelishi hamda chegara bojxona postlarida risklarni minimallashtirishning umumnazariy jihatlari va metodologik asoslari o'zbekistonlik tadqiqotchilardan Sh.Azizov <sup>2</sup>, A.Saidov <sup>3</sup>, N.Asqarov <sup>4</sup>, F.Sharipov <sup>5</sup>, A.Dusmuxamedov <sup>6</sup> o'z ilmiy ishlarida TIFda axborot xavfsizligi, tovarlarni bojxona nazoratidan o'tkazishda riskni minimallashtirish masalalarini yoritganlar.

---

2 Sh.Azizov Bojxona auditi metodologiyasini takomillashtirish. Doktorlik dis. ... MII. – T.: 2019;

<sup>3</sup> A.Saidov O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish usullari. Texnika fanlari nomzodi dis. ... TATU. – T.: 2015;

<sup>4</sup> N.Asqarov O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo va bojxona sohasini uyg'un boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi dis. ... ADU. – A.: 2014;

<sup>5</sup> F.Sharipov. O'zbekistonda tashqi savdoni tartibga solishda soliq siyosatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori dis. ... TMI. – T.: 2018;

<sup>6</sup> A.Dusmuxamedov. Taqsimli-integrallashgan avtomatlashtirilgan bojxona axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash usullari va algoritmik modellari. Falsafa fanlari doktori dis. ... TATU. – T.: 2019;

Xorijlik olimlar A.D Ershov <sup>7</sup>, F.Nayta <sup>8</sup>, S.V. Baramzin <sup>9</sup>, L.A. Popova <sup>10</sup>, V.A. Ostanina <sup>11</sup>, V.V.Makrusev <sup>12</sup>, V.V. Novikov <sup>13</sup>, D.V.Subbotin <sup>14</sup>, V.P.Buyanov <sup>15</sup>, K.A.Kirsanov, L.M.Mixaylovlar tomonidan bojxona organlarida riskni minimallashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa, F.Nayta, D.Bernulli, F.Gal'ton, D.Neyman, O.Morgenshtern, G.Markovisa, F.Blek, M.Shoulz va boshqalarning tadqiqotlarida risklarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, rossiyalik olimlaridan Ye.G.Anisimov, S.V. Baramzin, V.V. Makrusev, L.A. Popova, V.A. Ostanina, V.V. Novikov, A.D. Ershov, V.E.Burdin va boshqalar ilmiy ishlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bojxona xatarlari, ularning tasnifi ko'rib chiqilib, ularni yuzaga kelish ehtimolini aniqlash bo'yicha usul va vositalar ko'rsatib o'tilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning muhim tomoni shundaki, riskni minimallashtirish bojxona organlarining bojxona nazoratini tanlov asosida o'tkazishidagi asosiy vosita ekanligi hamda uni joriy etish umumiy tekshiruvlardan ko'ra aniq tahlillar asosidagi tanlov prinsipiga asoslangan tekshiruvlardan iborat ekanligi keltiriladi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekiston xalqaro aeroportlaridagi chegara bojxona postlaridan harakatlanayotgan jismoniy shaxslar va ularning qo'l yuklarini bojxona nazoratidan o'tkazishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklarni aniqlash va ularni minimallashtirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

xalqaro aeroportlarda jismoniy shaxslar va ularning qo'l yuklari bilan bog'liq moliyaviy riskni aniqlash bo'yicha nazariy va metodologik asoslarini o'rganish;

xalqaro aeroportlarda moliyaviy riskni minimallashtirish bo'yicha tashkiliy va huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

---

<sup>7</sup> Эршов А.Д., Копанева П.С. Информационное обеспечение управления в таможенной системе: Монография.- СПб.: Знание, 2002.

<sup>8</sup> Ф.Найта. Теория неопределенности и риска как факторов предпринимательской деятельности. [Электрон, ресурс]: Режим доступа:World Wide Web. URL:<http://www.dissercat.com>.

<sup>9</sup> С.В. Барамзин. Развитие управления таможенной деятельностью в России: Теоретико-методологический аспект. [Электрон, ресурс]: Режим доступа:World Wide Web. URL:<http://www.dissercat.com>

<sup>10</sup> Л.А. Попова. Особенности современного популяционного кризиса в северном полиэтничном регионе. [Электрон, ресурс]: Режим доступа:World Wide Web. URL:<http://www.dissercat.com>

<sup>11</sup> В.А. Останина. Метод комплексной оценки фактуры материалов как элемента дизайна изделий. [Электрон, ресурс]: Режим доступа:World Wide Web. URL:<http://www.dissercat.com>

<sup>12</sup> Макрусев В.В. Основы системного анализа и управления в таможенном деле: Учебник. - М.: РИО РТА, 2003

<sup>13</sup> В.В. Новиков. Биологические эффекты слабых и сверхслабых магнитных полей. [Электрон, ресурс]: Режим доступа:World Wide Web. URL:<http://www.dissercat.com>

<sup>14</sup> Субботин Д.В. Система управления рисками в таможенном контроле [Электрон, ресурс]: [brokert.ru](http://www.brokert.ru). Режим доступа: World Wide Web. URL: <http://www.brokert.ru/material/216>

<sup>15</sup> В.П.Буянов., К.А.Кирсанов., Л.М.Михайлов Рискология: учеб.пособие. - М.: Изд-во Экзамен, 2003

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida moliyaviy riskni minimallashtirish bilan bog‘liq tendensiyalarni aniqlash;

xalqaro aeroportlarda moliyaviy riskni minimallashtirish bilan bog‘liq muammo va ularga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflash;

xorijiy tajribani o‘rgangan holda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida moliyaviy riskni minimallashtirish tizimini rivojlantirish strategiyasini tadqiq qilish;

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida moliyaviy riskni minimallashtirish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston xalqaro aeroportlaridagi chegara bojxona postlarining undan harakatlanayotgan (kirayotgan va chiqayotgan) yo‘lovchilar, ularning qo‘l yuki va bagajlarini bojxona nazoratidan o‘tkazish jarayonidagi faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** Xalqaro aeroportlardagi chegara bojxona postlarining undan harakatlanayotgan (kirayotgan va chiqayotgan) yo‘lovchilar, ularning qo‘l yuki va bagajlarini bojxona nazoratidan o‘tkazishda moliyaviy risklarni minimallashtirishga oid chora-tadbirlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida statistik tahlil, SWOT-tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash va kuzatuv kabi usullardan hamda tizimli yondashuvlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalqaro aeroportlardagi bojxona nazorati jarayonida bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri va to‘liq undirishga ta'sir etadigan moliyaviy risk obyektlarini tanlash mexanizmi yo‘lovchi tomonidan bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba huquqbuzarlik sodir etilganligi bo‘yicha yangi mezonlar kiritish orqali takomillashtirilgan;

xalqaro aeroportlardagi chegara bojxona postlaridan muntazam ravishda olib o‘tiluvchi tovarlar uchun deklaratsiya muddatini uzaytirish hamda bojxona nazorati jarayonini yengillashtirish orqali bojxona to‘loviga tortish bo‘yicha potensial moliyaviy riskni erta aniqlash taklifi asoslangan;

xalqaro aeroportlarga uchib kelayotgan yo‘lovchilarning to‘lovga tortiladigan tovarlar bo‘yicha moliyaviy risk darajasini ularning yo‘l harakati bilan bog‘liq hujjatlarida oldindan va qo‘shimcha ma'lumotlarni yoritish orqali minimallashtirish taklifi asoslangan;

xalqaro aeroportlarga uchib kelayotgan moliyaviy risk darajasi yuqori bo‘lgan yo‘lovchilarni tanlab olish tamoyili asosida bojxona nazoratidan o‘tkazish jarayonida bojxona organlariga to‘lanishi lozim bo‘lgan oylik maoshlariga ko‘ra davlat byudjetiga keltiradigan iqtisodiy samaradorlik baholangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida riskni minimallashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha yechimlar ishlab chiqilgan;

“Xavfni boshqarish tizimi” darsligi Bojxona instituti “Bojxona ishi” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun tavsiya etilgan hamda ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan;

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida riskni minimallashtirish tizimini takomillashtirish orqali sohadagi muammolarni hal etish, bojxona nazorati vaqtini optimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o‘tkazilgan empirik tadqiqotlarning o‘rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning bojxona sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o‘tganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bojxona xizmatida riskni minimallashtirish tizimi mexanizmlarini takomillashtirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida riskni minimallashtirish tizimini joriy qilish jarayonida, Bojxona instituti kursantlari tomonidan darslik sifatida foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chegara bojxona postlarida moliyaviy riskni minimallashtirish istiqbollari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xalqaro aeroportlardagi bojxona nazorati jarayonida bojxona to‘lovlarini to‘g‘ri va to‘liq undirishga ta’sir etadigan moliyaviy risk obyektlarini tanlash mexanizmi yo‘lovchi tomonidan bir yil davomida ikki va undan ortiq marotaba huquqbuzarlik sodir etilganligi bo‘yicha yangi mezonlar kiritish taklifi Davlat bojxona qo‘mitasining “OKA/OKA” maxsus avtomatlashtirilgan axborot tizimiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2022 yil 31 martdagi №12/25-22-0011-son ma'lumotnomasi). Natijada aeroportlarda xizmat qilayotgan xodimlarda potensial moliyaviy risk sohalari to‘g‘risida oldindan ma'lumot paydo bo‘lishiga, bojxona organlarining cheklangan resurslaridan optimal foydalanish imkoniyati yaratilishiga hamda moliyaviy riskni aniqlash va uni minimallashtirish samaradorligini oshirishga imkon yaratgan;

xalqaro aeroportlardagi chegara bojxona postlaridan muntazam ravishda olib o‘tiluvchi tovarlar uchun deklaratsiya muddatini uzaytirish hamda bojxona nazorati jarayonini yengillashtirish orqali bojxona to‘loviga tortish bo‘yicha potensial moliyaviy riskni erta aniqlash taklifi Davlat bojxona qo‘mitasining 2022 yil 31 martdagi 01-02/13-20-sonli qarorida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2022 yil 31 martdagi №12/25-22-0011-son ma'lumotnomasi). Natijada xalqaro aeroportlardagi chegara bojxona postlaridan muntazam ravishda olib o‘tiluvchi tovarlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalana olish imkoniyatini kengaytirishga hamda bojxona nazorati jarayonini yengillashtirish orqali bojxona to‘loviga tortish bo‘yicha potensial moliyaviy riskni erta aniqlash imkoniyati yaratilgan;

xalqaro aeroportlarga uchib kelayotgan yo'lovchilarning to'lovga tortiladigan tovarlar bo'yicha moliyaviy risk darajasini ularning yo'l harakati bilan bog'liq hujjatlarida oldindan va qo'shimcha ma'lumotlarni yoritish orqali minimallashtirish taklifi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 30 martdagi 79-sonli buyrug'ida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 31 martdagi №12/25-22-0011-son ma'lumotnomasi). Natijada mamlakatimizga uchib kelayotgan yo'lovchilarga nisbatan moliyaviy risk darajasini minimallashtirish maqsadida ularga oldindan, bojxona nazorati zonasiga kirmasdan turib mamlakatimiz hududiga bojxona to'lovlari to'lamasdan olib kiriladigan tovarlar normasi bo'yicha ma'lumot berish imkoni yaratilgan;

xalqaro aeroportlarga uchib kelayotgan moliyaviy risk darajasi yuqori bo'lgan yo'lovchilarni tanlab olish tamoyili asosida bojxona nazoratidan o'tkazish jarayonida bojxona organlariga to'lanishi lozim bo'lgan oylik maoshlariga ko'ra davlat byudjetiga keltiradigan iqtisodiy samaradorlikni baholash taklifi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 30 martdagi 79-sonli buyrug'ida o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2022 yil 31 martdagi №12/25-22-0011-son ma'lumotnomasi). Natijada bojxona organlari tomonidan cheklangan resurslardan optimal foydalanilishi hisobiga davlat byudjetida qolishi ta'minlanadigan pul summasi va iqtisodiy samaradorlik hajmining tahlillar asosida baholanishiga erishilib, tejab qolingan pul summalarini boshqa tegishli sohalarni moliyalashtirishga yo'naltirish imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqolalar, 4 ta konferensiya tezisi nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 8 paragrafni o'z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxatidan iborat.

## **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Bojxona organlarida moliyaviy riskni minimallashtirish tizimini qo'llashning nazariy-huquqiy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida riskni minimallashtirish tizimining kelib chiqishi, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga riskni minimallashtirish tizimini qo'llash zaruriyati, bojxona

organlari cheklangan resurslaridan optimal foydalanish ahamiyati, bojxona riski va strategik risk soʻzining ilmiy asoslantirilgan tariflari, moliyaviy risklarning bojxona protseduralarini amalga oshirish jarayonida aniqlanishi yoritilgan.

Dunyo mamlakatlari bojxona tizimiga beriladigan baho quyidagi 3 ta asosiy mezon orqali baholanadi:

xalqaro standartlarga javob beradigan Bojxona kodeksining mavjudligi;

uzoq muddatga moʻljallangan strategiyaning qabul qilinganligi;

Riskni minimallashtirish tizimining mavjudligi.

Bizga ma'lumki 2018 yil dekabr oyigacha O'zbekiston bojxona tizimida riskni minimallashtirish tizimining bo'lmaganligi, bojxona ma'murchiligining xalqaro darajadagi mavqeyini pasayishiga olib kelgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga baho berishda riskni minimallashtirish tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>16</sup>

Bojxona organlari faoliyatida riskni minimallashtirish tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham riskni minimallashtirish tizimi dunyo tajribasida bojxona nazoratining asosiy falsafasi sifatida e'tirof etiladi.


O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra risk biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo'lish ehtimolligi ma'nolarini bildiradi.

Riskni aniqlash jarayonida samaradorlikka erishishning ikki asosiy talabi bor<sup>17</sup>:

Birinchisi, "Risk" atamasi nimani anglatishini aniq tushunish.

Ikkinchisi, risklarni soxtalaridan farqlay olish kerak.

Riskni minimallashtirish tizimini joriy etish Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi Kioto konvensiyasiga qo'shilish shartlaridan biridir. Shu bilan birga, Kioto konvensiyasiga qo'shilish esa Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning shartlaridan biridir.



### **1-rasm. Riskni minimallashtirish tizimining jahon savdosiga integratsiyalashuvdagi ahamiyati<sup>18</sup>**

Strategik risk - bu iqtisodiy va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof muhitni muhofaza qilish, milliy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan bog'liq bo'lgan risk.

Bojxonada risk soʻzining salbiy moliyaviy oqibatlarini hisobga olgan holda quyidagicha mualliflik tarifini berishimiz mumkin:

Bojxona riski – bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi hisobiga davlat

<sup>16</sup> A.O.Nazarov. Bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari. – T.: Moliya va Bank ishi, 2019.-188 b

<sup>17</sup> Общие характеристики рисков в различных сферах деятельности. URL:<http://gisap.eu/ru/node/14438> (мурожаат санаси: 28.09.20)

<sup>18</sup> Mualliflik ishlanmasi


byudjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarining to‘lanmay qolish ehtimolligi darajasi.

Moliyaviy riskni minimallashtirish - davlat byudjetiga to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlari to‘lanmay qolinishining oldini olish maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui.

Dissertatsiyaning «Xalqaro aeroportlarda moliyaviy riskni minimallashtirish tizimining amaldagi holati tahlili, mavjud muammolar» deb nomlangan ikkinchi bobida xalqaro aeroportlarda iqtisodiy samaradorlikka asoslangan innovatsiyalarni joriy qilish, yo‘lovchilarni va ularning yuklarini bojxona nazoratidan o‘tkazishning yanada aqlli va samarali usullarini ishlab chiqish, API va PNR tizimidan bojxona xizmatida foydalanishning ijobiy tomonlari, bojxona to‘lovlarining davlat byudjetiga to‘liq undirilishi, o‘zgarishi mumkin bo‘lgan biografik identifikatsiya belgilari tahlil qilingan.

Asosan, ushbu tizim chegara nazoratini kuchaytirish doirasida, aviakompaniya operatorlari tizimlarida mavjud yo‘lovchilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar oldindan chegara bo‘ylab harakatlanadigan yo‘lovchilar va tovarlarni nazorat qilish uchun chegaradagi nazorat organlari tomonidan ishlatiladi. Har qanday holatda nazoratning bu shakli, ya‘ni riskka asoslangan holda yo‘lovchi va tovarlarni maqsadli nazoratdan o‘tkazish qabul qiluvchi mamlakatga yo‘lovchilar kelishiga qadar qo‘llanilishi lozim.

Identifikatsiya belgilariga ism, tug‘ilgan sana va joy, fuqarolik, jinsi va boshqa biometrik ma‘lumotlar kiradi.




**2-rasm. O‘zgarishi mumkin bo‘lgan biografik identifikatsiya belgilari** <sup>19</sup>

Yo‘lovchilar va ularning bagajlari to‘g‘risida dastlabki elektron tarzda oldindan axborot olishdan asosiy maqsad olingan ma‘lumotlarni tahlil qilish orqali bojxona nazorati obyektlarini, ya‘ni bojxona to‘loviga tortiladigan tovarlarni oldindan aniqlab olish hisoblanadi. Dastlabki elektron tarzda oldindan axborot olish bojxona nazoratida bojxona operatsiyalarini optimallashtirish va tezlashtirish,

<sup>19</sup> Mualliflik ishlanmasi

samaradorligini oshirish, davlat byudjetiga tushishi lozim bo'lgan pul mablag'larini to'liq tushish imkonini beradi.

Aviareyslar to'g'risida oldindan axborot berish orqali olingan ma'lumotlar quyidagicha taqdim etiladi.



**3-rasm. Aviareyslar to'g'risida oldindan axborot berish orqali olingan umumiy ma'lumotlar <sup>20</sup>.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 iyulda "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 199-qarori 31 – bandi 3-qismida davlat sirlari to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan tashqi savdo kontraktlari bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyalari bojxona xizmati organlari tomonidan qog'oz shaklida rasmiylashtirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, ular bo'yicha oldindan elektron ma'lumotlar berilmasligi kerak.

Chegara o'tkazish punktlarida riskni miqdoriy baholash sifatida tovarlarni bojxona chegarasi orqali bojxona qoidalarini buzgan holda o'tkazish ehtimoli taklif etiladi <sup>21</sup> (1- formulaga qarang).

$$R = \frac{M}{K} \quad (1)$$

bunda M – bojxona qoidalari buzib olib o'tilgan tovar partiyalari soni,  
K – ushbu muddat oralig'ida olib o'tilgan tovar partiyalari soni.

Riskni baholash bojxona qoidalari buzilishining iqtisodiy oqibati bilan ham bog'liq sanaladi. Riskni miqdoriy baholash davlatga yetkazilgan zararni hisoblay olish imkoniyatini beradi.

<sup>20</sup> DBQ YAAAT ma'lumotlari asosida tayyorlangan mualliflik ishlanmasi

<sup>21</sup> Н.В.Ширкунова Управление рисками в таможенном контроле: автореферат диссертации канд. эконом. наук / Н.В.Ширкунова. – М., 2005. – 16с

Riskning iqtisodiy yo‘qotish koeffitsienti quyidagi formula asosida aniqlash mumkin <sup>22</sup> (2- formulaga qarang).

$$r = \frac{E_{dy}}{E_{sq}} \quad (2)$$


bunda  $E_{dy}$  - davlatga yetkazilgan zarar,

$E_{sq}$  - tovar statistik qiymati.

Agar risk koeffitsienti  $0 \leq r \leq 0,05$  oralig‘ida bo‘lsa, risk minimal hisoblanadi.

Xalqaro aeroportlardagi chegara bojxona postlaridan muntazam ravishda olib o‘tiluvchi tovarlar uchun deklaratsiya muddatini uzaytirish hamda bojxona nazorati jarayonini yengillashtirish orqali bojxona to‘loviga tortish bo‘yicha potensial moliyaviy riskni erta aniqlash hamda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalana olish imkoniyatini kengaytirish mumkin.

Manzil aeroportga uchib kelishda yo‘lovchilar kelishidan oldin ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lish riskni minimallashtirish tizimi samarali ishlashi uchun muhim ahamiyat kasb etib, bojxona to‘lovlari to‘lanishi lozim bo‘lgan tovarlarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Yo‘lovchilar to‘g‘risida oldindan elektron tarzda taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida riskni baholash amalga oshirilib, oldindan nazorat obyektini tanlash imkoniyatini taqdim etadi. Ma‘lumotlar elektron tarzda taqdim etilishi sababli, ularni dastur yordamida qayta ishlash mumkin bo‘ladi. Yo‘lovchilar to‘g‘risida oldindan elektron tarzda taqdim etilgan ma‘lumotlarni qayta ishlash jarayoni ham ma‘lum bir vaqtni talab qiladi.



**4-rasm. Oldindan elektron tarzda taqdim etilgan ma‘lumotlardan to‘g‘ri foydalanish yo‘nalishlari <sup>23</sup>**

<sup>22</sup> Н.В.Ширкунова Управление рисками в таможенном контроле: автореферат диссертации канд. эконом. наук / Н.В.Ширкунова. – М., 2005. – 16с

<sup>23</sup> Mualliflik ishlanmasi

Ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali bojxona nazorati obyektini tanlash natijasida tovarlar va yo'lovchilarni tekshirishlar soni minimum darajaga tushadi.

Dissertatsiyaning «**O'zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida moliyaviy riskni minimallashtirish tizimini takomillashtirish istiqbollari**» deb nomlangan uchinchi bobida riskni minimallashtirish tizimida nazorat obyektini tanlash mexanizmini joriy qilishda yo'lovchining fuqaroligi, jinoiy tarixi, yurak urishi chastotasi, yo'lovchi tomonidan bir yil davomida 2 va undan ortiq marotaba huquqbuzarlik sodir etilganligi, yoshi, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan berilgan ma'lumotlar, yashash hududi kabi mezonlari, bojxona to'lovlariga tortiladigan tovarlar miqdori bo'yicha QR kod dasturiy ta'minotidan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida foydalanish, xalqaro aeroportlar bojxona nazorati jarayonida riskni minimallashtirish tizimini takomillashtirish maqsadida risk obyektini tanlash va uni minimallashtirish modeli, poyabzal skanerlash uskunalarini chegara bojxona postlarida amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirish uchun ularning faoliyatini boshqarish jarayonini axborot va tahliliy qo'llab-quvvatlash zarur. Bojxona organlari faoliyatini boshqarishning axborot-tahliliy ta'minotini takomillashtirish tegishli ilmiy-uslubiy apparatlar va texnik vositalarning mavjudligini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishda eng ko'p sodir etilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi 2018-2020 yillarda Tojikiston, Xitoy Xalq Respublikasi fuqarolari tomonidan sodir etilgan. Rossiya, Tojikiston, Ozarbayjon, Hindiston, Xitoy, Qozog'iston fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishda chet davlat fuqarolari bo'yicha risk guruhiga kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqishda eng ko'p sodir etilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi 2018-2020 yillarda Rossiya fuqarolari tomonidan sodir etilgan. Rossiya, Tojikiston, Afg'oniston, Turkiya, Xitoy fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqishda chet davlat fuqarolari bo'yicha risk guruhiga kiritish mumkin.

2018-2020 yillar davomida sodir etilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi 62,6 % erkaklar, 37,4 % ayollar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bundan ko'rish mumkinki erkaklarning ayollarga nisbatan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzish ehtimolligi yuqori baholanadi.

2018-2020 yillar davomida sodir etilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi eng ko'p ulushi (31 %) 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Ya'ni yoshlar tomonidan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi ko'plab sodir etilmoqda.

2018-2020 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishda noqonuniy ravishda tibbiy uskunalar, tibbiy buyumlar Turkiya, Xitoy, Hindiston va Rossiyadan 508, 6027, 506, 508, 272, 274, 422, 424, 426, 502, 512, 573, 602, 614, 6027, 6029 – reyslar, dori vositalari Turkiya, Qozog'iston, Hindiston, Malayziya, Xitoy, Janubiy Koreya va Rossiyadan 274, 127, 128, 272, 368, 370, 422, 424, 426, 508, 602, 604, 123, 444, 512, 552, 554, 573 – reyslar, alkogol mahsuloti AQSh, Janubiy Koreya va Qozog'istondan 102, 573, 762 – reyslar, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari Qozog'iston, BAA, Hindiston, Xitoy,

Ozarbayjon va Turkiyadan 127, 272, 274, 368, 370, 422, 756, 3526, 5031, 6027, 332, 424, 426– reyslar, kompyuter qurilmalari, ehtiyot qismlari, printerlar Qozog‘iston, BAA, Janubiy Koreya va Malayziyadan 573, 554, 123, 334– reyslar, TMB (kiyim-kechak...) Qozog‘iston, Ozarbayjon, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiyadan 3524, 127, 272, 274, 368, 573, 5031, 123, 129, 370, 506, 508– reyslar, soatlar AQSh, BAA va Xitoydan 334, 102, 6027– reyslar, uyali telefonlar, ehtiyot qismlari AQSh, BAA, Janubiy Koreya, Hindiston, Rossiya va Xitoydan 102, 332, 334, 508, 514, 573, 941, 6027, 614, 422, 426, 502, 512, 1941, 8765– reyslar orqali kirib kelishga urinish holatlari kuzatilgan.

2018-2020 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqishda noqonuniy ravishda valyuta asosan Qozog‘iston, Turkiya, Ozarbayjon, Xitoy, BAA, Rossiya va Janubiy Koreyaga 128, 271, 273, 806, 6028, 231, 333, 371, 505, 513, 574, 601, 603, 745, 755, 1942, 3298, 6028, 6030 –reyslar, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari Qozog‘iston va Hindistonga 423, 425, 130, 443 –reyslar, madaniy boyliklar Qozog‘iston, Rossiya va Xitoyga 603, 721, 8766 –reyslar, tamaki mahsulotlari Hindistonga 443, 425 –reyslar orqali olib chiqib ketishga urinish holatlari kuzatilgan.

2018-2020 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishda sodir etilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi 23,2 % “qizil” yo‘lak orqali, 72 % “yashil” yo‘lak orqali harakatlangan fuqarolar orasidan hamda 4,8 % aeroport avtoturargohida tezkor tadbir orqali aniqlangan. Qonunbuzar yo‘lovchilarning aksariyati “yashil” yo‘lak orqali harakatlangan.

2018-2020 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqishda sodir etilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi 68 % “qizil” yo‘lak orqali, 32 % “yashil” yo‘lak orqali harakatlangan fuqarolar tomonidan sodir etilgan.

2018-2020 yillar davomida sodir etilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi viloyatlar kesimida o‘rganildi. (1-jadval):

### 1- jadval

#### 2018-2020 yillar davomida sodir etilgan bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishi viloyatlar kesimida <sup>24</sup>

Viloyat	Huquqbuzarliklar soni	Foizda
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6	0,4 %
Navoiy	9	0,6 %
Surxondaryo	20	1,4 %
Sirdaryo	23	1,6 %
Xorazm	23	1,6 %
Jizzax	26	1,8 %
Buxoro	33	2,3 %
Qashqadaryo	43	3 %
Toshkent viloyati	93	6,5 %
Andijon	123	8,6 %
Farg‘ona	169	11,8 %
Samarqand	192	13,4 %
Namangan	242	16,7 %
Toshkent shahri	435	30,3 %

<sup>24</sup> DBQ ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2018-2020 yillar davomida sodir etilgan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi eng ko'p Farg'ona, Samarqand, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi fuqarolar hissasiga to'g'ri kelgan.

2019-2021 yillar davomida 2 va undan ortiq marta bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar o'rganildi. (2-jadval):

## 2- jadval

### 2019-2021 yillar davomida 2 va undan ortiq marta bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar <sup>25</sup>

Pasport seriyasi, raqami	Tug'ilgan yili	Huquqbuzarliklar soni
AA 0203848	04.02.1987	2
AA 2600923	06.11.1976	2
AB 6436014	19.02.1985	2
AB 6791185	28.07.1977	2
AB 7016439	08.02.1960	2
AB 7306534	01.09.1975	2
AB 7719094	07.08.1958	2
AB 7864238	03.06.1988	2
AB 7991463	19.01.1966	2
AB 7992021	01.04.1983	2
AB 8025048	24.12.1986	2
AB 8899986	13.10.1972	2
AC 0161944	06.06.1983	2

Ushbu yo'lovchilar bir yil mobaynida 2 va undan ortiq marta bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan. Yuqoridagi yo'lovchilarni risk darajasi yuqori bo'lgan yo'lovchilar guruhiga kiritish mumkin.

Odatda, jismoniy va ruhiy-emotsional xotirjamlik holatida bo'lgan insonning yurak urish tezligi daqiqasiga 60-90 marta atrofida bo'ladi. Ruhiy xotirjam bo'lmagan, ichki qo'rquv holatida bo'lgan shaxslarda yurak urish tezligi ushbu normadan yuqori bo'ladi.

Tibbiyot sohasidan ma'lumki, insonning yurak urish pulsining tezlashishiga uning kasalligi, jismoniy faolligi yoki hayajonlanishi ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, hayajonlangan odamlarning yuragi tez ura boshlaydi. Uning ilmiy asoslari tibbiyot xodimlari tomonidan juda ko'p tasdiqlangan.

Ruhiy xotirjam bo'lmagan, ichki qo'rquv holatida bo'lgan shaxslarda yurak urish tezligi o'rtacha normadan yuqori bo'ladi. Chegara o'tkazish punktlarida noqonuniy faoliyatni amalga oshirishga harakat qiladigan shaxslar ushbu qilmishi aniqlanadigan bo'lsa, u bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini yaxshi anglashi sababli, ruhiy xotirjamlikdan chiqib, ichki qo'rquv holatida bo'ladi. Bunday holatda esa o'z-o'zidan ularning yurak urishi tezligi ortadi. Shu sababli, yurak pulsini masofadan aniqlay oladigan kameralarni chegara bojxona postlariga o'rnatishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Hozirda xalqaro aeroportlarda joylashgan chegara bojxona postlarida riskni

<sup>25</sup> DBQ ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

minimallashtirish natijasida xodimlar tomonidan davlat byudjetiga pul mablag‘lari undirilib kelinmoqda. 2019-2022 yillar davomida Toshkent xalqaro aeroporti chegara bojxona posti xodimlari tomonidan undirilgan bojxona to‘lovlari o‘rganildi. (3-jadval):

**3- jadval**

**2019-2022 yillar davomida Toshkent xalqaro aeroporti chegara bojxona posti xodimlari tomonidan undirilgan bojxona to‘lovlari va rasmiylashtirilgan bojxona kirim orderlari <sup>26</sup>**

<b>Toshkent xalqaro aeroporti ch.b.p</b>	<b>2019 yil</b>	<b>2020 yil</b>	<b>2021 yil</b>	<b>2022 yil 6 oyi</b>
<b>Undirilgan bojxona to‘lovlari</b>	630,82 mln.so‘m	750,56 mln. so‘m	1 mlrd. 173 mln. so‘m	677,14 mln. so‘m
<b>Rasmiylashtirilgan bojxona kirim orderlari</b>	419 ta	353 ta	2372 ta	3509 ta

